

NAVOIY VILOYATINING IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA YALPI HUDUDIIY MAHSULOTI.

Navoiy innovatsiyalar universitetining katta o'qituvchisi

Gafurova Dilobar Karamatovna

Navoiy innovatsiyalar universitetining iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

Rajabova Marjona O'tkir qizi

Annotatsiya: Ushbu tezisdanavoiy viloyatining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulotini o'sish sur'atlari hamda kichik biznesning hajmi va yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini, oxirgi yillardagi statistik ko'rsatkichlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'z: yalpi hududiy mahsulot, sanoat, qurilish, xizmatlar, yalpi qo'shilgan qiymat, mahsulotlarga sof soliqlar, iqtisodiy faoliyat, investitsiya, diversifikatsiya.

Аннотация: В диссертационной работе рассматриваются темпы роста валового регионального продукта Навоийской области по видам экономической деятельности, объём малого бизнеса и его доля в валовом региональном продукте, а также статистические показатели за последние годы.

Ключевые слова: валовой региональный продукт, промышленность, строительство, сфера услуг, валовая добавленная стоимость, чистые налоги на продукты, экономическая деятельность, инвестиции, диверсификация.

Abstract: This dissertation examines the growth rate of the gross regional product of the Navoi region by type of economic activity, the size of small

businesses and their share of the gross regional product, as well as statistical indicators for recent years.

Keywords: gross regional product, industry, construction, services, gross value added, net taxes on products, economic activity, investment, diversification.

So'ngi yillarda Navoiy viloyatining iqtisodiyoti o'sish tendensiyasini davom ettirmoqda. YAHMning strukturasi sanoat yetakchi ulushga ega bo'lib, xizmatlar sektori jadal kengayib bormoqda. Bu esa iqtisodiy faoliyatning diversifikatsiya jaryonlari bosqichma-bosqich kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yavar-mart oylarida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsuloti(YAHM) hajmi 29 963,6 mlrd. So'mni tashkil etdi va 2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 110,5 foizga tenglashdi. Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi 2024-yilning 1choragiga nisbatan 120,5 foizni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishiga viloyatning qo'shgan hissasi 9,0%ga yetdi.

Yalpi hududiy mahsulot(YAHM)- milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mamlakatning iqtisodiy hududida joylashgan resident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining so'nggi natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

2025-yilning yanvar -mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mrd.so' m	O'sis h sur'atlari, %da



	2024-yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	22 501,0	29 963,6	110,5
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	22 276,8	29 731,8	110,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	224,2	231,8	111,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	22 276,8	29 731,8	110,5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 334,7	1 573,6	104,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	17 732,6	24 331,2	111,3
Sanoat	16 895,4	23 335,0	111,4
Qurilish	837,2	996,2	109,9
Xizmatlar	3 209,5	3 827,0	108,4
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	947,9	1 150,1	111,1
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	431,5	545,0	117,7
Boshqa xizmat tarmoqlari	1 830,1	2 131,9	104,8

2025-yilning 1choragida aholi jon boshiga hisoblangan. Yalpi hududiy mahsulot 27 314,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich 2024-yilning 1choragiga nisbatan 8,5%ga yuqoridir.

2025-yilning 1-choragida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 99,2% ini, mahsulotarga sof soliqlar esa 0,8% ini tashkil etdi. Tahlil davomida qishloq , o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 5,3% ni, sanoat tarmog'I 78,5% ni, qurilish 3,4%ni va xizmatlar sohasi 12,8%ni tashkil qildi. 2025-yilning 1-choragida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,3%(YAHMning



tarmoqla bo'yicha tarkibidagi ulushi -5,3%), sanoatda-111,4% (78,5%), qurilishda-109,9%(3,9%), xizmatlar sohasida- 108,4% ni (12,8%) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,1% (3,9%), tashish va saqlash, axborot va aloqa 117,7% (1,8%), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,8%dan (7,1%) iborat bo'ldi.

2025-yining 1-choragida kichik tadbirkorlikning hajmi 5 338,8 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024-yilning 1-choragida – 4 621,4mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 18,0%ni (2024-yilning 1-choragida -20,7%) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi o'tgan yilning 1-choragiga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushinig o'sishi bilan bog'liq.

Navoiy viloyati O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. So'nggi yillarda viloyatda:

- YAHMning barqaror o'sishi,
- Sanoat ishlab chiqarishning kengayishi,
- Qurilish va xizmatlar sektorining faollashuvi,
- Qo'shilgan qiymat ulushining ortishi

kuzatilmoqda. Hududda mavjud resurslar, geografik qulayliklar va sanoat salohiyati iqtisodiy o'sishning asosiy omili bo'lib qolmoqda. Biroq yuqori qo'shilgan qiymatga o'tish, xizmatlar sektorini modernizatsiya qilish, sanoatda qayta ishlash ulushini ko'paytirish va qurilish sifatini oshirish kabi vazufalar iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari bo'lib qolmoqda.

Aniq va samarali takliflar

Sanoat bo'yicha:

- mineral resurslarni chuqur qayta ishlash loyihalariga soliq imtiyozlari berish;





- tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish;
- sanoat zonalarida logistika markazlari yashkil etish;
- texnologik yangilanish uchun uzoq muddatli imtiyozli kreditlar joriy etish.

2. Qurilish bo'yicha:

- mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish,
- sifat standartlarini kengaytirish;
- energetik samarador qurilish texnologiyalarini joriy etish.

3. Xizmatlar sektori bo'yicha:

- raqamli xizmatlar va IT-klasterlarni rivojlantirish,
- logistika va transport xizmatlarini hududlar kesimida kengaytirish,
- turizm yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish,
- zamonaviy xizmat ko'rsatish markazlarini tashkil etish.

4. Soliq va fiskal siyosat bo'yicha:

- yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan ishlab chiqarishlarga soliq yengilliklari,

- kichik biznes subyektlari uchun subsidiyalar mexanizmini takomillashtirish.

- investitsiya loyihalari uchun subsidiyalar mexanizmini takomillashtirish.

5. Kadrlar tayyorlash bo'yicha:

- sanoat va IT yo'nalishida dual ta'lim tizimini joriy etish,
- o'quv muassasalari va korxonalar hamkorligini kuchaytirish.

6. Barqaror rivojlanish bo'yicha:

- ekologik toza texnologiyalarni joriy etish,
- sanoat chiqindilarini qayta ishlash darajasini oshirish,
- yashil energetika loyihalariga investitsiya jalb etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
-“Hududlar kesimida yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichlari”, 2021-
2024- yillar statistik to'plamlari.
- 2.Navoiy viloyati statistik axborotnomasi – Navoiy 2025
- 3.Navoiy viloyati statistika boshqarmasi- “Navoiy viloyati ijtimoiy-
iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari”, yillik statistik byulletenlar, 2022-2024.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi- “Mahsulotlarga sof soliqlar
va budget daromadlari tahlili” yillik hisobotlari, 2021-2023.
- 5.Samadov M.- “Xizmatlar sektori va hududlar iqtisodiy rivojlanishi”,
“Iqtisodiyot va ta'lim“ ilmiy jurnali,2021.

